

**“O‘zbek geologiya qidiruv” AJ boshqaruv raisining Jamiyat va uning
tarkibiy bo‘linmalar jamoasiga
MUROJAATI**

So‘nggi yillarda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohatlar natijasida bugun barcha sohalarga katta e‘tibor qaratilmoqda. Amalga oshirilayotgan islohotlar negizida inson qadrini ulug‘lashga qaratilgan ezgu maqsad mujassam. Barchangizga ma‘lum davlatimiz rahbari tomonidan Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga yo‘llagan Murojaatnomasida 2023-yilni “Insonga e‘tibor va sifatli ta‘lim” yili deb nom berdilar. Murojaatnomada bu yil amalga oshirish lozim bo‘lgan bir qator tashabbuslar ilgari surilib, ma‘sul tashkilotlar oldiga aniq vazifalar belgilab berildi.

“O‘zbek geologiya qidiruv” aksiyadorlik jamiyati ham geologiya-qidiruv ishlaridagi samaradorlikni va natijadorlikni oshirish kabi bir qator vazifalarni o‘z oldiga belgilab oldi. Xususan, tashkilotimizning barcha tarmoqlarida taraqqiyotimizga g‘ov bo‘luvchi korrupsiya illatiga murosasiz kurash tizimini yaratishimiz lozim. Bugungi kunda korrupsiyaga qarshi kurashish borasida alohida qonunlar qabul qilinib, huquqiy asoslar mustahkamlandi.

Shuni alohida ta‘kidlash kerakki, mamlakatimizda davlat va jamiyat boshqaruvining turli sohalarida korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish borasida izchil hamda samarali chora-tadbirlar olib borilmoqda.

Prezidentimiz tomonidan Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga qilgan Murojaatnomasida ***“Sun‘iy monopoliyaga, yopiq sxemalarga, umuman korrupsiyaga imkon yaratadigan barcha bo‘shliqlarga barham berilishi”*** alohida ta‘kidlandi. Ushbu illat davlatchiligimizga naqadar xavfli ekanligi barchamizga ma‘lum.

Shu yo‘nalishda “O‘zbek geologiya qidiruv” aksiyadorlik jamiyatida amalga oshirilayotgan islohotlarning samaradorligini oshirish, korrupsiyaga qarshi kurashishni kuchaytirish maqsadida tashkil etilgan Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo‘limi faoliyat olib bormoqda.

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha olib borilayotgan davlat siyosatining harakatlantiruvchi kuchi sifatida davlat organlari, fuqarolik jamiyati institutlari, fuqarolarimiz tomonidan ushbu illatga qarshi olib borilayotgan kurashni yagona tizimli harakatga aylantirish ishlari olib borilmoqda, ushbu illatga qarshi murosasizlik va toqatsizlik muhitini ya‘ni jamoatchilik nazoratini kuchaytirish orqali sodir etilishi mumkin bo‘lgan korrupsion holatlarni oldini olish barchamizga birdek vazifa bo‘lishi lozim.

Buning uchun sodiqlik, halollik, vatanparvarlik va mas‘uliyatni faoliyatning asosiy tamoyiliga aylantirgan holda, Jamiyatning har bir xodimi jamoamiz oldiga qo‘yilgan vazifalarni vijdonan, xolis va yuqori saviyada amalga oshirishi lozim.

Shu nuqtai nazardan, korrupsiya bilan bog‘liq bo‘lgan takliflar, arizalar yoki shikoyatlari bo‘lgan har bir xodimni Jamiyatning aloqa kanallari orqali xabar berishga chaqiramiz.

“O‘zbek geologiya qidiruv” AJ xodimi degan yuksak sharaflı maqom egasi sifatida korrupsiyaviy jinoyatlarning oqibatlari bilan emas, uni keltirib chiqaruvchi sabab, shart-sharoitlariga qarshi kurashish, korrupsiyaning oldini olish va unga

qarshi kurashish faoliyati samaradorligini oshirishda barcha birdek ko'maklashishga tayyor bo'lishi lozim.

Jamiyatning barcha bo'linmalarida faoliyat olib borayotgan barcha xodimlar o'zining ish faoliyatini kasbiga mehr, sadoqat, halollik, oshkoralik kabi tamoyillar asosida tashkil qilishi zarur.

Bunda Jamiyat va uning xodimlari o'zlarining barcha resurslarini – kuch-g'ayratini, imkoniyatlarini, kasbiy hamda intellektual salohiyatini safarbar etadi, deb ishonamiz!

Yurtimiz ravnaqi yo'lida qilayotgan mehnatingizda barchangizga omad va zafarlar hamroh bo'lsin!

Boshqaruv raisi



Sh.P. Alimov